

XITOIY TILIDA DAVLAT BOSHQARUVGA OID ATAMALARNING SHAKLLANISH TARIXI

Baxronova Zarina

Samarqand Davlat Chet tillar Universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19310242>

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadimgi Xitoy davlat boshqaruvi tizimining shakllanish va rivojlanish jarayoni tarixiy-evolyutsion jihatdan tahlil qilinadi. Unda Shan, Chjou va Sin sulolalari davrida boshqaruv institutlari, hukmdor hokimiyati hamda ma'muriy tuzilmalarning xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, konfutsiylik, legizm va daosizm kabi siyosiy-falsafiy ta'limotlarning davlat boshqaruvi tizimiga ko'rsatgan ta'siri ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Xitoy davlatchiligining uzviyligi, markazlashuv va institutsional barqarorlik tamoyillarini tushunishga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье с историко-эволюционной точки зрения анализируется процесс формирования и развития системы государственного управления в древнем Китае. В ней рассматриваются особенности управленческих институтов, власти правителя и административных структур в период династий Шан, Чжоу и Цинь. Также раскрывается влияние таких политико-философских учений, как конфуцианство, легизм и даосизм, на систему государственного управления. Результаты исследования способствуют пониманию принципов преемственности китайской государственности, централизации и институциональной устойчивости.

Kalit so'zlar: Boshqaruv tizimi, Van, Shan va Chjou sulolalari, boshqaruv organlari, imperator, legizm, daosizm, konfutsiylik, imperator.

Xitoyda davlat boshqaruvi jahon sivilizatsiyasi tarixidagi eng qadimiy, uzluksiz va barqaror boshqaruv an'alaridan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega. Uch ming yildan ortiq tarixiy taraqqiyot davomida Xitoy davlat boshqaruvi modeli hukmdorning shaxsiy hokimiyatiga asoslangan patrimonial boshqaruv tizimidan boshlab, markazlashgan va institutlashgan imperatorlik byurokratik boshqaruv modeliga, XX–XXI asrlarda esa xitoycha xususiyatlarga ega sotsialistik davlat boshqaruvi tizimiga qadar murakkab evolyutsion rivojlanish yo'lini bosib o'tdi.

Ushbu jarayonda boshqaruv shakllari va siyosiy institutlar o'zgargan bo'lsa-da, davlat boshqaruvining asosiy tamoyillari, xususan markazlashuv, ierarxiya, intizom va davlat manfaatlarining ustuvorligi kabi jihatlar izchil saqlanib kelgan. Xitoy davlat boshqaruvi tarixini o'rganish ushbu tizimning qanday qilib Shan va Chjou kabi ilk sulolalar davridagi patrimonial va qisman feodal boshqaruv shakllaridan boshlab, Xan sulolasi davrida markazlashgan imperatorlik boshqaruvi va professional davlat apparatiga asoslangan modelga aylanganini anglash imkonini beradi.

Keyingi davrlarda Tan va Sun sulolalari ma'muriy boshqaruvning murakkablashuvi, davlat xizmatchilarini tanlashda imtihon tizimining takomillashuvi hamda markaziy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi vakolatlarining aniq belgilanishi bilan ajralib turadi. Min sulolasi davrida esa imperator hokimiyatining kuchayishi va byurokratik apparatning yanada markazlashuvi kuzatiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Xitoyda davlat boshqaruvi tizimining tarixiy evolyutsiyasini kompleks tarzda tahlil qilish, turli sulolalar va siyosiy tizimlarning davlat institutlari, ma'muriy tuzilmalar hamda boshqaruv amaliyotlarining shakllanishiga ko'rsatgan ta'sirini aniqlashdan iboratdir.

Umuman olganda, Xitoy davlat boshqaruvi uzoq va murakkab tarixiy taraqqiyot jarayonida ko'plab o'zgarishlar va islohotlar orqali shakllangan bo'lib, har bir sulola mavjud boshqaruv tizimini davr talablari va siyosiy ehtiyojlar asosida moslashtirgan hamda takomillashtirgan.

Natijada Xitoyda davlat boshqaruvi tizimi tarixiy uzviylik, moslashuvchanlik va barqarorlik kabi xususiyatlarni o'zida mujassam etgan noyob model sifatida shakllangan.

Qadimgi Xitoy: davlatchilik asoslarining shakllanishi (miloddan avvalgi XVI–III asrlar).

Shan (商朝) va G'arbiy Chjou (西周) sulolalari davrida davlat boshqaruvi yaqqol teokratik hamda urug'-qabila xarakteriga ega bo'lgan. Oliy hokimiyat hukmdor — van (王) qo'lida jamlangan bo'lib, uning legitimligi sakral tasavvurlar va diniy kultlar orqali asoslangan.

Van hokimiyati oliy kuchlarning in'omi sifatida talqin etilgan bo'lib, bu uning siyosiy va ma'naviy hukmronligini mustahkamlab bergan. Shan va Chjou sulolalari davrida davlat boshqaruvi vazifalari urug'-qabila aristokratiyasi, harbiy zodagonlar hamda ruhoniylar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu bosqichda zamonaviy ma'nodagi professional mansabdorlar (amaldorlar) tizimi hali shakllanmagan edi.

Davlat xizmatchisi mustaqil ijtimoiy va kasbiy toifa sifatida hali vujudga kelmagan.

Urug' va qabila tizimi asta-sekin zaiflashib, jamiyatda mehnat taqsimoti kuchaya boshladi. Shu jarayonda urug' aristokratiyasidan iborat alohida boshqaruv guruhi shakllandi.

Qabila boshlig'i muqaddas hisoblangan hukmdor — **vanga** aylandi. U harbiy ishlar, diniy marosimlar va boshqaruv bilan shug'ullangan. Aynan shu davrda dastlabki boshqaruv tizimi paydo bo'ldi. U quyidagilardan iborat edi: hududlarni boshqaruvchilar, harbiy yetakchilar, ruhoniylar va saroy zodagonlari.

Shan davri jamiyati va davlati qullik tuzumiga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Iqtisodiy asosini dehqonchilik, hunarmandchilik va harbiy o'lja tashkil etgan bo'lib, ijtimoiy tuzilma qat'iy ierarxiya bilan ajralib turgan. Chjou davlati boshqaruv tizimi.

Chjousiy Xitoyda davlat boshqaruvining markazi van saroyi bo'lib, davlatning siyosiy va ma'muriy hayoti aynan shu yerda jamlangan. Alohida o'rinni szay (宰) — vanga eng yaqin bo'lgan oliy boshqaruvchi egallagan. U hukmdor irodasining asosiy ijrochisi vazifasini bajargan hamda o'ziga bo'ysunuvchi mansabdor shaxslar faoliyatini muvofiqlashtirgan.

Chjanguo (战国时期) davrida siyosiy parokandalik va davlatlararo urushlar sharoitida Xitoy davlatchiligining keyingi rivojiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan asosiy boshqaruv hamda siyosiy-falsafiy ta'limotlar shakllangan:

Konfutsiylik (儒家) — hukmdorning shaxsiy fazilati, marosimlar va ijtimoiy uyg'unlikka asoslangan axloqiy-etik boshqaruv modeli;

Legizm (法家) — qonun (fa), jazolash tizimi va qat'iy tartibga solishga tayangan markazlashgan boshqaruv nazariyasi;

Daoizm (道家) — davlatning minimal aralashuvi va tabiiy tartibga ergashish (u-vay) konsepsiyasi.

Aynan legizm markazlashgan byurokratik davlatni shakllantirishning g‘oyaviy asosi bo‘lib xizmat qilgan bo‘lib, bu holat to‘liq darajada Sin podsholigi davrida namoyon bo‘lgan va imperiyaviy boshqaruv modelining poydevorini yaratgan.

Sharqiy Chjou davrida mamlakatning iqtisodiy hayoti hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi bilan tavsiflanadi, bu esa savdogarlar qatlamining rolini oshishiga hamda urug‘-aristokratiyaning merosiy yer egaligining tanazzulga uchrashiga olib kelgan. Shu bilan birga, yerga bo‘lgan xususiy mulkchilik munosabatlari mustahkamlangan.

Miloddan avvalgi VIII asr o‘rtalaridan boshlab, G‘arbiy Chjou monarxiyasi tugatilganidan so‘ng, davlat ko‘plab mustaqil siyosiy birliklarga parchalangan. Sin podsholigi taxminan miloddan avvalgi X asrda vujudga kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. История государства и права зарубежных стран. Краткий курс / Коллектив авторов — «РИПОЛ Классик», 2016 — (Скорая помощь студенту. Краткий курс)
2. Zhang Chuangxin, 中国政治制度史（第二版） Tsinghua universiteti nashriyoti, Pekin
3. Lyu Tsungli, Chjan Chjenlan. 中国历代官制大辞典（修订版） *Xitoyning turli davrlaridagi mansab va lavozimlar tizimi bo‘yicha katta lug‘at* (qayta ko‘rib chiqilgan nashr). Nashr qilingan vaqti: 2015-yil yanvar.